

## QASHQADARYO VA SURXONDARYO QIPCHOQ DIALEKT VA ETNOGRAFIKALARINI YAXLIT O'RGANISH MUAMMOLARI

**B. A. Rahmonov**

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

“O'zbek tili va adabiyoti” kafedrasida o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Bilamizki, yurtimizda ilk renessans davrida, til va adabiyot ancha rivojlandi. Respublikamiz hududlarining turli joylarida har xil shevaga xos so'zlar shakllana boshladi. Ushbu maqolada Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatining dialekt va etnografizmlarini yaxlit o'rganish va uning muammolari haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** Dialekt, lingvokulturologiya, etnolingvistika, sheva, lahja.

### ABSTRACT

We know that during the first Renaissance in our country, language and literature developed significantly. Different dialects began to appear in all regions of the country. This article deals with the integrated study of dialects and ethnography of Surkhondaryo and Kashkadarya regions and its problems.

**Keywords:** Dialect, lingvokulturologiya, ethnolinguistics, “sheva”, “lahja”.

### KIRISH

Bugungi zamonaviy tilshunoslikda quyidagi sohalar ustuvor va dolzarb bo'lib turibdi. Bular: psixolingvistika, antropolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika va lingvokulturologiya sohalaridir. Dialekt va etnografizmlarni keng ko'lamda ilmiy asosda o'rganish bevosita etnolingvistika va lingvokulturologiya yo'nalishlarida olib borilayotgan tadqiqotlarning samaradorligiga ham bog'liq. Sababi, hozirda dialekt va etnografizmlarni etnolingvistik va lingvomadaniy aspektida o'rganish muhim tadqiqot zaruriyati bo'lib turibdi.

O'zbek tili boshqa turkiy tillardan ko'p shevaliligi bilan farqlanadi. Prof. Y.D.Polivanov asrimiz birinchi choragidayoq o'zbek tili o'zining ko'p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida o'zining ilmiy ishlarida ma'lumot bergan edi<sup>1</sup>. O'zbek shevalari o'zbek tilining mahalliy ko'rinishlari bo'lib, uni o'rganish fan uchun nazariy ahamiyat kasb etsa, bo'lajak til va adabiyot o'qituvchisi

<sup>1</sup>Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. T.: O'qituvchi,1978.

uchun amaliy ahamiyatga molikdir. Hozirgi zamon jonli sheva va etnografizmlari yozma yodgorliklarda, shuningdek, hozirgi adabiy tilimizda ham uchramaydigan ko'pgina so'z va so'z formalari, lug'aviy birliklarni o'zida saqlab qolganki, ularni asosli ravishda o'rganish tilning uzoq zamonlardagi holatini aniqlashda yordam beradi<sup>2</sup>.

“Agar zudlik bilan keksa avlod nutqida saqlanib kelayotgan noyob so'z va iboralar zudlik bilan yig'ib olinmasa, barcha ma'sulyatni o'z zimmamga olib aytamanki, ular hofizasidagi bir qism dialektizmlar umuman yo'qolib ketishi mumkin”,<sup>3</sup> degan edi akademik Sh.Shoabdurahmonov. Olimning aytgan fikri bugun ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bizga ma'lumki, o'zbek tili qarluq, qipchoq, o'g'uz lahjalariga ajratiladi. Bu lahjalar leksik, morfologik, fonetik jihatdan bir-biridan farq qiladi. Qipchoq lahjasi, asosan, “j” lovchi va “a”lovchi hisoblanadi. Qipchoq lahjasi hududiy jihatdan Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarini o'z ichiga oladi. Qipchoq shevasini A.Shermatov, T.Nafasov, A.Jo'rayev, A.Mamatqulov, A.Ishayev, A.Nosirov, Sh.Muhammadjonov, Q.Mamayev, S.Rahimov kabi olimlar o'rgangan. Ular o'z ilmiy izlanishlari orqali qipchoq lahjasining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bergan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Biz Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati shevalarini o'rganib shunga amin bo'ldikki, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, Yakkabog', Chiroqchi tumanlarida yashovchi aholi shevasi bilan Surxondaryo viloyati aholisi Jarqo'rg'on, Qiziriq, Qumqo'rg'on shevasida o'xshashlik juda ko'p. Bunga sabablardan biri hududiy yaqinlik bo'lsa, yana bir sabab doimiy qarindoshlik aloqalari va tumush tarzidagi o'xshashlik hisoblanadi.

Kuzatishlar va o'rganishlar natijasida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati etnografizmlarini quyidagi tematik guruhlarga bo'lish mumkin:

1) milliy urf-odatlar, marosimlar, an'analar va qadriyatlarining nomlarini anglatuvchi etnografizmlar: *oshxudayi, darvishona, xatim, pitro'za, dangana, toqson kirsra, to'rg'ay qadamicha kun uzayar;*

2) urug'-qabila nomlarini bildiruvchi etnografizmlar: *tortuvli, qo'ldovli, oboxli, saroyi, qoraqasmoq, kal, ko'sa, rayimto'da, arab, mo'nkaovul kabi;*

<sup>2</sup>Rahimov S. Surxondaryo o'zbek shevalari lug'ati. Toshkent, 1995.

<sup>3</sup>SHoabdurahmonov SH. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. Toshkent, 1962.

3) oziq-ovqat va uy-ro'zg'or buyumlari nomlarini anglatuvchi etnografizmlar: *jalama, nonbosti, tondirgo'sht, shirkadi, piyoba, yaxna, cho'poncha, lochiri, jupqa, nonto'shama, g'ilmindi, chopqi, daskala, juvaldiz* va boshqalar;

4) kiyim-kechak hamda taqinchoq nomlarini bildiruvchi etnografizmlar: *charchi, lachak, kurta, massi, digdika, ciroz, so'zana, mo'kki*;

5) chorvachilik va dehqonchilik bilan bog'liq etnografizmlar: *to'l, to'la, uvuz, gilagay, qog'anoq, ko'nargi, tomizg'i, uyutma, iydirma, enchi, chagana, kuvi(kubi), tuvcha, to'xli, shishak, chibich, boyidi*.

### TADQIQOT NATIJALARI

Quyidagi jadval orqali Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida qo'llaniladigan dialekt va etnografizmlarning o'xshashligini ko'rish mumkin.

|  |  |
|--|--|
| Qashqadaryo viloyatida qo'llaniladigan dialekt va etnografizmlar (B.Jo'rayev "Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari" kitobi asosida) | Surxondaryo viloyatida qo'llaniladigan dialekt va etnografizmlar (S.Rahimov "Surxondaryo o'zbek shevalari lug'ati" kitobi asosida) |
| <i>shibirdamoq – pichirlamoq</i>   | <i>shibirdamoq – pichirlamoq</i>   |
| <i>shirvoz – emadigan (hali sutdan ayrilmagan qo'zi)</i>   | <i>shirboz – olti oylik sutdan ayrilmagan qo'zi;</i>   |
| <i>Shirbirich – shirguruch (sutda pishiriladi)</i>   | <i>shirbirich – sutda pishirilgan guruch;</i>  |
| <i>ovloq—pana, chekka joy</i>  | <i>ovloq—pana, chekka joy</i>  |
| <i>chunoq – xasis</i>  | <i>chunoq – xasis</i>  |
| <i>chinoq – qulog'i kertik mol</i>   | <i>chinoq – qulog'i kertik mol</i>   |
| <i>ayna – murojaat uchun ishlatiladigan so'z</i>   | <i>ayna – murojaat uchun ishlatiladigan so'z</i>   |
| <i>oyg'oq – shatta, janjalkash</i>   | <i>ayg'aq – shatta, janjalkash</i>   |
| <i>ural – boshning tarki birikkan joyda o'sgan kokil</i>   | <i>ural – boshning tarki birikkan joyda o'sgan kokil</i>   |
| <i>alag'alay – qandaydir, allaqanday</i>   | <i>alag'alay – qandaydir, allaqanday</i>   |
| <i>aptap – quyosh</i>  | <i>aptap – quyosh</i>  |
| <i>chuvoq – issiq</i>  | <i>chuvaq – issiq</i>  |
| <i>atqamar – uch tomoni berk joy</i>   | <i>atqamar – uch tomoni berk joy</i>   |
| <i>oxmoy – paxta yog'i</i>   | <i>axmay – paxta yog'i</i>   |
| <i>arqayin – bamaylixotir</i>  | <i>arqayin – bamaylixotir</i>  |
| <i>ottaba – oftoba</i>   | <i>attaba – oftoba</i>   |

|  |  |
|--|--|
| <i>tutandiriq – quruq o‘tin</i>                                    | <i>tutantiriq – quruq o‘tin</i>                                    |
| <i>Uvuz – yangi tug‘gan mol suti</i>                               | <i>uvuz – yangi tug‘gan mol suti</i>                               |
| <i>uchunmoq – qo‘rqmoq</i>   | <i>uchunmoq – qo‘rqmoq</i>   |
| <i>to‘rsalak – lo‘ppi, semiz</i>                                   | <i>to‘rsalak – lo‘ppi, semiz</i>                                   |
| <i>tuyato‘pon – sabziga o‘xshagan yovvoyi o‘simlik</i>             | <i>tuyato‘pon – sabziga o‘xshagan yovvoyi o‘simlik</i>             |
| <i>to‘bal – qashqa</i>   | <i>to‘bal – qashqa</i>   |
| <i>allamchi – aldoqchi, yolg‘onchi</i>                             | <i>allamchi – aldoqchi, yolg‘onchi</i>                             |
| <i>taxtay – sabzi to‘g‘raydigan taxtacha</i>                       | <i>taxtay – sabzi to‘g‘raydigan taxtacha</i>                       |
| <i>boybicha – xotin-qizlarga murojaat</i>                          | <i>baybicha – baycha, xotin-qizlarga murojaat</i>                  |
| <i>baqimti – qo‘ldan kelgan</i>                                    | <i>baqimti – qo‘ldan kelgan</i>                                    |
| <i>tobaq – milliy kurashda polvonlar uchun qo‘yiladigan sovrin</i> | <i>tabaq – milliy kurashda polvonlar uchun qo‘yiladigan sovrin</i> |
| <i>berman-narman – nari-beri</i>                                   | <i>berman-narman – nari-beri</i>                                   |
| <i>siyirmoq – shilmoq</i>  | <i>siyirmoq – shilmoq</i>  |
| <i>vo‘pka – hovliqma</i>   | <i>vo‘pka – hovliqma</i>   |
| <i>boyinsa – tengqur</i>   | <i>boyinsa – tengqur</i>   |
| <i>siyir – sigir</i>   | <i>siyir – sigir</i>   |

Kuzatishlar jarayonida Qashqadaryo va Surxondaryo “j” lovchi shevalari leksik va fonetik sathida tojik tili ta’siri sezilarli ekanligini ko‘rish mumkin. Bu o‘ziga xoslik Yakkabog’, Dehqonobod Sariosiyo, Denov va Boysun shevalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.. Bu shevaga xos xususiyatlardan biri ular “o” va “i” tovushlarini cho‘zib talaffuz qiladi. Masalan, jilon, jo‘l, jilamoq so‘zlarida “o” va “i” tovushlari cho‘ziq hamda urg‘u bilan aytiladi.

1 Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, Qashqadaryo va Surxondaryo dialekt va etnografizmlarini taqqoslash asosida ilmiy tadqiqot olib borish zarur.

2 Ushbu hududda yashovchi qipchoq dialekt va etnografizmlarini o‘rganish barobarida boshqa viloyat qipchoq vakillari nutqini keng asosda o‘rganishga zamin yaratadi (Samarqand, Jizzax qipchoq shevalari).

3 Qashqadaryo va Surxondaryo dialekt va etnografizmlarini “Janubiy O‘zbekiston” nomi ostida yaxlit dialektal etnografizmlar lug‘atini yaratish (bunga viloyatlar kesimida bajarilgan ishlarni yanada boyitish lozim).

4 Janubiy O‘zbekiston hududida amalga oshirilgan dialektologik tadqiqotlarni davom ettirish va ularni etnolingvistik va lingvokulturologik aspektda o‘rganishni rag‘batlantirish kerak. Masalan, N.Mirzayevning “O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati” hajmini bir necha barobar oshirish mumkin.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

S.Rahimovning “Surxondaryo o‘zbek shevalari lug‘ati” da 3500 sheva so‘zlari berilgan. Bu ham juda kam va buni taxminan 20000ga yetkazish mumkin. Qolaversa, bu lug‘atdagi ko‘pchilik shevaga oid so‘zlar etnografizm darajasiga kelib qolgan.

Shu bilan birga, 2019 yilda ustozimiz A.Omonturdiyev bilan hamkorlikda nashr etilgan “Surxondaryo dialektal etnografik maqollarining izohli lug‘ati” kitobi ham mazkur yo‘nalishdagi muhim manbalardandir. Unda jamlangan minga yaqin maqol va iboralarning aksariyati Qashqadaryo qishloqlarida ham qo‘llaninishini ko‘rish mumkin.

### XULOSA

Maqolamiz so‘ngida shuni aytmoqchimizki, obyektimiz hududida amalga oshirilgan tadqiqotlarning aksariyat qismi sobiq ittifoq davrida olib borilganligini hisobga olsak, ularning ilmiy izlanishlarida etnografizmlar masalasini yoritishga deyarli e‘tibor qaratilmagan (bu sobiq ittifoq mafkurasi ta‘siri bilan bog‘liq).

### REFERENCES

1. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov SH. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1978.
2. To‘ychiboyev B., Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2004.
3. Jo‘rayev B. Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari. Toshkent, 1969.
4. Rahimov S. Surxondaryo o‘zbek shevalari lug‘ati. Toshkent, 1995.
5. Omonturdiyev A., Rahmonov B. Surxondaryo dialektal-etnografik maqollarining izohli lug‘ati. Toshkent, 2019.
6. Хасанова, Г. И. Қ. (2021). БОЛАГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТАРБИЯЧИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТСИЯСИНИНГ АХАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 2(9), 1051-1056.